



“TASDIQLAYMAN”
Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh.A.Abdiyev

Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi

BAYONI № 7

2023-yil 4-avgust

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiyev Boshqarma boshlig‘i

Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari,
Komissiya a’zolari va boshqarma
xodimlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

**“Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusini muhokama etish
to‘g‘risida.**

(Sh.Abdiyev, T.Sidikov, M.Salimov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi yig‘ilishda boshqarma boshlig‘i Sh.Abdievning “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusi yuzasidan axboroti tinglandi.

Jumladan, aholining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha savodxonligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, jamoatchilik e’tiborini korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga qaratish, shuningdek, ushbu sohadagi davlat organlarining faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonlariga keng jamoatchilikni jalb qilish orqali samarali jamoatchilik nazoratini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi jamoatchilik va davlat idoralarining o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ular faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Korrupsiya – bu mansabdor shaxslar tomonidan davlat hokimiysi yoki boshqaruvi vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlarni yoki boshqa shaxslar manfaatini ko‘zlab sodir etiladigan jinoyatlar yig‘indisi ekanligi, ayni damda korrupsiyaga qarshi kurashish barcha davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda ta’lim muassasalarda ustuvor vazifaga aylanganligini ma’lumot o‘rnida ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, yig‘ilish davomida statistika hisobotlari shakllarini onlayn qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlari yo‘l qo‘ymasliklari yuzasidan barcha tizim xodimlari ogoh bo‘lishi hamda tizimda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan mas’ullarga nisbatan tegishli ko‘rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i Sh.Abdiyevning "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz" mavzusi yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

Boshqarmanning rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmanning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi

X.Xolmo'minov